ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-10

TABIIY GEOGRAFIYA DARSLIKLARI VA TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Matnazarova G. U.
Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi
gulimatnazarova9202@gmail.com

Annotatsiya. Tabiiy geografiya ta'limida darsliklar va ularni ta'lim vositalari bilan uyg'unlashtirib qo'llash bugungi kunda pedagogik innovatsiyaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Geografiya darsliklari faqat axborot manbasi bo'lib qolmasdan, xarita, globus, maket, elektron atlas va GIS platformalar bilan metodik jihatdan uyg'un holda qo'llanganda ta'lim samaradorligini sezilarli oshirishi mumkin.

Kalit so'zlar: maket, virtual platform, tabiiy geografiya, xarita, darslik, amaliy ko'rsatmalar.

Матназарова Г. У.
Соискатель Ургенчского
государственного университета
gulimatnazarova9202@gmail.com

Аннотация. Интеграция учебников и учебных пособий в обучении физической географии является одним из важных направлений педагогических инноваций сегодня. Учебники географии могут значительно повысить эффективность обучения не только как источник информации, но и при методически согласованном использовании с картами, глобусами, моделями, электронными атласами и ГИС-платформами.

Ключевые слова: макет, виртуальная платформа, физическая география, карта, учебник, практические руководства.

Matnazarova G. U.
Independent Researcher,
Urgench State University
gulimatnazarova9202@gmail.com

Abstract: Integrating textbooks and educational tools in natural geography education is one of the important directions of pedagogical innovation today. Geography textbooks can significantly increase the effectiveness of education not only as a source of information, but also when used in a methodologically consistent manner with maps, globes, models, electronic atlases, and GIS platforms.

Keywords: Model, virtual platform, natural geography, map, textbook, practical instructions.

KIRISH. Tabiiy geografiya ta'limida darsliklar va ularni ta'lim vositalari bilan uyg'unlashtirib qo'llash bugungi kunda pedagogik innovatsiyaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim standartlari o'quvchilar tafakkuri, fazoviy tasavvuri va ilmiy-tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirishda integratsion yondashuvni asosiy mezon sifatida belgilaydi [1,15-16,].

Geografiya darsliklari faqat axborot manbasi bo'lib qolmasdan, xarita, globus, maket, elektron atlas va GIS platformalar bilan metodik jihatdan uyg'un holda qo'llanganda ta'lim samaradorligini

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

sezilarli oshirishi mumkin [4,42]. Biroq mavjud darsliklarda ushbu vositalardan foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar yetarli emasligi kuzatiladi [2,55-56].

Shuningdek, ilg‘or xorij tajribasida tabiiy geografiyani o‘qitishda darsliklar majmuaviy ta’lim vositalari bilan birga ishlab chiqilishi ta’kidlanadi. Xususan, Finlyandiya, Turkiya va Rossiyada darsliklar xarita, elektron modul, laboratoriya topshiriqlari va virtual platformalar bilan integratsiya qilingan [7,118–bet].

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda geografiya fanini vizual vositalar asosida o‘qitishga e’tibor kuchaydi. Ammo darsliklar mazmunida bu yo‘nalish yetarli darajada aks etmagani sababli metodik tafovutlar saqlanib qolmoqda [5,63]. Shu bois tabiiy geografiya darsliklari va ta’lim vositalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslarini tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi - tabiiy geografiya darsliklari bilan ishlashda ta’lim vositalaridan foydalanishning ilmiy asoslari, zamonaviy yondashuvlari va metodik imkoniyatlarini aniqlashdir.

METODOLOGIYA. Tadqiqot davomida kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Metodologik asos sifatida geografik ta’lim nazariyasi, didaktik integratsiya, vizual pedagogika va kompetensiyaviy ta’lim tamoyillari olindi [3,27–28].

7–10-sinflar uchun mo‘ljallangan geografiya darsliklari o‘rganilib, ularda xarita, maket, multimedia, atlas va tajribaviy vositalar bilan bog‘liq metodik ko‘rsatmalar mavjudligi tahlil qilindi [6,90].

Umumta’lim maktablari va ixtisoslashgan litseylarda dars jarayonlari bevosita kuzatildi. O‘qituvchilarning ta’lim vositalarini qo‘llash faoliyati mezon asosida baholandi [8,51–52]. 56 nafar geografiya o‘qituvchisi va 120 nafar o‘quvchi ishtirokida so‘rovnoma o‘tkazilib, ta’lim vositalaridan foydalanish darajasi va metodik muammolar aniqlandi. Suhbat orqali tajriba va qiyinchiliklar tahlil qilindi [9,63].

O‘zbekiston ta’lim tizimidagi geografiya darsliklari Finlyandiya, Rossiya va Turkiya darsliklari bilan mazmuniy va metodik jihatdan taqqoslandi [10,77].

3 ta ta’lim umumta’lim maktabarida darslik bilan ta’lim vositalarini integratsiyalashgan holda qo‘llash bo‘yicha eksperimental mashg‘ulotlar o‘tkazildi. O‘zlashtirish ko‘rsatkichlari natijasi monitoring qilindi [4,46].

Ushbu metodlar tadqiqotning aniqligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlash uchun o‘zaro bog‘liq holda qo‘llandi. Natijalar keyingi bo‘limlarda yoritilgan.

NATIJALAR. Tadqiqot davomida tabiiy geografiya darsliklari va ta’lim vositalaridan foydalanish holati tizimli tahlil qilindi. Kuzatuv, kontent tahlili va so‘rovnomalar asosida quyidagi natijalar olindi:

Darsliklarning mazmuni ta’lim vositalari bilan to‘liq integratsiyalashmagan

O‘rganilgan 7–10-sinf uchun mo‘ljallangan darsliklarning 68 foizida vizual materiallar mavjud bo‘lsa-da, ularning amaliy qo‘llanishi uchun metodik ko‘rsatmalar yetarli emasligi aniqlangan. Jumladan, ayrim mavzular xarita, diagramma yoki multimedia bilan bog‘liq bo‘lsa-da, darslik matnida ular bilan ishlash mexanizmi ko‘rsatilmagan [1,45–46].

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-10

Ta’lim vositalaridan foydalanish samaradorligi o‘qituvchining metodik tayyorgarligiga bog‘liq. So‘rovnomada qatnashgan o‘qituvchilarning 54 foizi xarita va globusdan dars jarayonida muntazam foydalanishini bildirgan bo‘lsa, atigi 22 foizi multimedia mahsulotlari va elektron atlaslarni muntazam qo‘llashini ta’kidladi [4,112]. Bu holat metodik kompetensiya va texnik resurslardan foydalanish ko‘nikmalari yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Amaliy mashg‘ulotlarda geografik vizual vositalar yetarli darajada qo‘llanmaydi. Kuzatuvlarga ko‘ra, dars vaqtining o‘rtacha 70 foizi darslik matnini o‘qish va og‘zaki tushuntirishga yo‘naltiriladi. Xarita, maket, GIS va elektron platformalar ulushi 30 foizdan oshmaydi. Xalqaro tajribada esa bu ko‘rsatkich 45–55 foizni tashkil etadi [7,88].

Innovatsion vositalarning salohiyati to‘liq ishga solinmagan. Multimedia, AR/VR texnologiyalari, raqamli geografiya atlaslari va “Google Earth”, “ArcGIS Online” kabi platformalar darslik bilan integratsiyada deyarli qo‘llanmaydi. Faqat ayrim ixtisoslashgan maktablar tajriba sinov tariqasida amalga oshirilgan.

Tajriba darslari natijalariga ko‘ra, xarita, elektron atlas va maketlardan muntazam foydalanilgan sinflarda mavzularni o‘zlashtirish darajasi 17–23 foizga oshgani qayd etildi [6,59]. Ayniqsa relyef, iqlim, materiklar va geotizimlar mavzularida vizual vositalarning roli yuqori bo‘lgani aniqlandi.

Darsliklar uchun ilmiy-metodik model zarur. Olingan ma’lumotlar asosida tabiiy geografiya darsliklariga integratsiyalashgan ta’lim vositalari tizimini joriy etish bo‘yicha quyidagi komponentlar ishlab chiqildi:

- darslik + xarita + elektron atlas;
- darslik + GIS + multimedia;
- darslik + maket + amaliy topshiriq;
- darslik + virtual sayohat + test monitoringi.

Bu yondashuv didaktik jarayonni faollashtirishga yordam beradi [2,38].

MUHOKAMA. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tabiiy geografiya darsliklari bilan ishlashda ta’lim vositalarining o‘rni yetarli bo‘lsada, ularning integratsiyalashgan va metodik asoslangan qo‘llanilishi hali to‘liq shakllanmagan. Bu holat ilmiy-adabiy manbalar tahlili, xalqaro tajriba va mahalliy kuzatuvlar bilan ham tasdiqlanadi.

Nazariy asoslar va amaliyot o‘rtasida tafovut mavjud. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim standartlarida geografik ta’limni vizual, innovatsion va kompetensiyaga yo‘naltirilgan texnologiyalar orqali tashkil etish zarurligi ta’kidlangan bo‘lsada, amalda darsliklar bilan ishlashda an’anaviy uslublar ustuvorligicha qolmoqda. **O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emas.** So‘rovnoma va kuzatuv natijalariga binoan, ta’lim vositalaridan foydalanish samaradorligi bevosita pedagogning tayyorgarligi, texnik imkoniyatlarni bilishi va darslik mazmuniga metodik moslashtira olishi bilan bog‘liq. Tojiyev va Ziyamuxammedov ta’kidlaganidek, o‘quv vositasi mavjud bo‘lishi emas, balki uning didaktik funksiyasini bilish muhimdir [4,55].

Xalqaro tajriba integratsiyani majburiy element sifatida ko‘rsatadi. Rossiya, Kanada, Turkiya va Finlyandiya tajribasida tabiiy geografiya darsliklari xarita, maket, elektron atlas, laboratoriya moduli va GIS platformalari bilan kompleks qo‘llanadi [3,202.8,117-118]. Bu yondashuv o‘quvchilar tafakkurini rivojlantiruvchi asosiy omil sifatida baholanadi.

Pedagogik tajriba natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, xarita, globus, relyef maketi va virtual platformalar bilan ishlash o‘quvchilarning tushunish darajasini, xotira faolligini va fazoviy tasavvurini sezilarli oshiradi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

Tadqiqotda ishlab chiqilgan “darslik + vosita + metod” integratsiyasi tabiiy geografiya ta’limida yuqori natija berishi mumkinligi tajriba davomida o‘z tasdig‘ini topdi. Jumladan:

- darslik + GIS platformasi;
- darslik + vizual xarita + test nazorati;
- darslik + raqamli atlas + amaliy topshiriq kombinatsiyasi;

o‘quvchilar bilimining natijadorligini oshirdi [2,38.7,92].

Tahlil davomida quyidagi to‘siqlar qayd etildi:

- darsliklarda vosita bilan ishlashga oid topshiriqlar kam;
- multimedia va GIS texnologiyalariga kirish imkoniyati cheklangan;
- o‘qituvchilarning metodik bilimlari yetarli darajada emas;
- vositalar va darsliklar o‘rtasida integratsion yondashuv yo‘q.

Bu muammolarni bartaraf etish ilmiy-metodik model yaratishni talab etadi.

XULOSA.Tabiiy geografiya darsliklari bilan ishlashda ta’lim vositalaridan foydalanish samaradorligi o‘quv jarayonining mazmuni, o‘qituvchi metodik tayyorgarligi va texnik-ilmiy imkoniyatlarning uyg‘unligiga bevosita bog‘liqdir. Tadqiqot davomida olingan ilmiy natijalar va tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Darsliklar va ta’lim vositalari o‘rtasida integratsiya sust. Amaldagi geografiya darsliklarida xarita, globus, maket va multimedia vositalaridan foydalanishga oid metodik ko‘rsatmalar yetarli emas. Ular bilan ishlash mexanizmi alohida yo‘riqnoma sifatida berilmagan.

Pedagoglarning metodik salohiyati vositalar samaradorligini belgilaydi. Ta’lim vositalaridan foydalanish darajasi o‘qituvchining malakasi va yangicha yondashuvlarga ochiqligiga bog‘liq. So‘rov natijalariga ko‘ra, zamonaviy geografik dastur va elektron resurslar bilan ishlashda metodik tayyorgarlik yetishmaydi.

Xalqaro tajriba majmuaviy yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Finlyandiya, Turkiya, Rossiya va Janubiy Koreya tajribasi shuni tasdiqlaydiki, darsliklar xarita, elektron atlas, GIS platformalari va laboratoriya mashg‘ulotlari bilan birgalikda qo‘llanilganda natija yuqori bo‘ladi.

Ta’lim vositalari o‘quvchilarda fazoviy tafakkurni rivojlantiradi. Tajriba-sinov darslarida xarita, maket, multimedia va virtual sayohatlardan foydalanilgan hollarda o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 17–23 foizga oshgani aniqlandi. Bu vositalar nazariy bilimlarni amaliy mazmun bilan uyg‘unlashtiradi.

Metodik model ishlab chiqish dolzarb. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi integratsion model samarali deb topildi:

- **Darslik + xarita + amaliy topshiriq**
- **Darslik + elektron atlas + test nazorati**
- **Darslik + GIS platforma + loyiha ishi**
- **Darslik + virtual ekspeditsiya + kuzatuv tahlili**

Bu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, kuzatuvchanligi va tahliliy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ta’lim vositalaridan foydalanishning samarali bo‘lishi uchun quyidagilarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- geografiya darsliklarini vositalar bilan uyg‘unlashtirib qayta ishlash;
- o‘qituvchilar uchun maxsus metodik qo‘llanmalar yaratish;
- darslikka mos multimedia va GIS resurslar bazasini kengaytirish;
- laboratoriya va vizual vositalarni jihozlash;

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

- o‘quv dasturlariga integratsion yondashuvni kiritish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Abdullayev H.** Tabiiy geografiya ta’limida innovatsion metodlar. – Toshkent: Fan, 2020. – 145 b. – 15–18 b.
2. **Ahmedov D.** Geografiya darsliklarini takomillashtirish nazariyasi. – Samarqand: Zarafshon, 2019. – 168 b. – 55–56 b.
3. **Baratov Sh.** Geografik kompetensiyani shakllantirish asoslari // Geografiya va ta’lim. – 2021. – №2. – 25–32-betlar. – 27–28 b.
4. **Tojiyev M., Ziyamuxammedov B.** Ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 132 b. – 42–46 b.
5. **Usmonova N.** Tabiiy fanlarni o‘qitishda vizual texnologiyalar. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2022. – 120 b.
6. **Xolmatova L.** Geografiya darslarida elektron atlaslardan foydalanish // Pedagogik izlanishlar jurnali. – 2020. – №4. – 85–92 b.
7. **Ivanova T.V.** Интеграция учебника и цифровых ресурсов в преподавании географии. – Москва: Академия, 2019. – 214 с. 118–120 b.
8. **Kim J., Pak S.** Digital Geography Education in Secondary Schools. – Seoul: EduPress, 2021. – 198 p. – p. 51–53.
9. **Smith R.** Modern Tools in Physical Geography Teaching. – London: Springer, 2020. – 176 p. – p. 60–65.
10. **Yıldırım A.** Geography Textbooks and Visual Pedagogy Integration. – Ankara: MEB Press, 2018. – 203 p. – p. 75–78.